

X-Xii Asrlarda O'zbek Adabiyotida Yaratilgan Asarlarda Hamd Va Na't Qismlarining O'xshash Va Farqli Jihatleri

*Salimova Shaxzoda Jamshid qizi*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada X–XII asrlarda yaratilgan o'zbek adabiyoti namunalari asosida hamd va na't qismlarining o'xshash va farqli jihatleri tahlil qilingan. Xususan, “Qutadg'u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Devoni hikmat”, “Shayboniynoma”, “Sabot ul-ojizin” hamda “Shajarai turk” kabi asarlardagi Allohga bo'lgan hamd va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga bag'ishlangan na'tlar mazmun, tuzilish va ifoda shakli jihatidan o'rganilgan. Maqolada bu diniy-poetik unsurlar ijodkorlarning e'tiqodi, adabiy mahorati va diniy-falsafiy bilimlari bilan bevosita bog'liq ekani ko'rsatiladi. Shuningdek, hamd va na't qismlarining an'anaviy va innovatsion yondashuvlari, asarlarda qo'llanilgan til, uslubiy xususiyatlar, obrazlilik darajasi va diniy ta'sirlar asosida o'zaro qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. Mazkur maqola diniy adabiyotshunoslik, klassik o'zbek adabiyoti va diniy-estetik tafakkur doirasida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hamd, na't, adabiyot, Alloh, Payg'ambar, xalifa, nazm, nasr, doston, bob, tukiyl til, munojot, sunnat, qasida, ta'rif, muqaddima, turkiy adabiyot.

Hamd (arab. — ulug'lash, ta'rif-tavsif, madh) — biror kimsa sha'niga maqtov she'r. Sharq mumtoz adabiyotida Allohni madh etuvchi hamdlar ko'p yaratilgan, ular odatda, doston muqaddimasining maxsus bobi bo'lgan.

Na't (arab. — maqtov, ta'rif) — mumtoz adabiyotning an'anaviy tarkibiy qismlaridan biri. Odatda, katta she'riy-epik asar (doston)lar, ba'zan ilmiy asarlar bosh qismida hamd va munojotdan keyin keladi. Na't, asosan, payg'ambar (lar) sha'niga aytiladigan maqtovdan iborat bo'lib, ko'pgina mumtoz she'riy asarlarda uchraydi.

Shu nuqtayi nazardan, X-XII asrlarda o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarning hamd va na't qismlarining o'xshash va farqli jihatlarini o'rganamiz. Aynan shu davrda yaratilgan o'zbek adabiyotining nodir namunalarini quyidagilar:

1. “Qutadg'u bilig” (Yusuf Xos Hojib) 1069-1070
2. “Hikmatlar” (Ahmad Yassaaviy) 1100-1166
3. “Hibat ul-haqoyiq” (Ahmad Yugnakiy) 1326
4. “Shayboniynoma” (Muhammad Solih) 1506
5. “Shajarai turk” (Abulg'oziy Bahodirxon) 1644-1664
6. “Sabot ul-ojizin” (So'fi Olloyor) 1644-1724

“Qutadg'u bilig” asari

Bu asar Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub, turkiy adabiyotning nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Asar turkiychadan tarjima qilinganda, “Saodatga yo'llovchi bilim” degan ma'noni anglatadi va ijodkor tomonidan 1069-1070-yillar oralig'ida yozilgan. Chin (Shimoliy Xitoy)liklar uni “Adab ul-muluk” (“Hukmdorlar odobi”), Mochin (Janubiy Xitoy)liklar “Oyin ul-mamlakat” (“Hukmdorlik qonun-qoidalari”), Sharqiy Xitoyliklar “Ziynat ul-umaro” (“Hukmdorlar ziynati”), Eronliklar “Shohnoma'i turkiy” (“Turkiy Shohnoma”), ba'zilar “Pandnoma'i muluk” (“Hukmdorlar pandnomasi”), Turonliklar

¹ Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi



esa “Qutadg’u bilig” (“Saodatga yo’llovchi bilim”) deb ataganlar. Dostonni yaratar ekan, muallif o’z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg’achxon va Eloqxonlar o’rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma’rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ’ib qilish kabi maqsadlarni qo’yg’an. Asar markaziga 4 masala qo’yilib, ular 4 obraz vositasida ochib berilgan.

Adolat – podshoh – Kuntug’di

Davlat – vazir – Oyto’ldi

Aql – vazirning o’g’li – O’gdulmish

Qanoat, ofiyat – vazirning qarindoshi – O’zg’urmish

Asarning boshlanishi shu davrda yaratilgan barcha asarlar kabi hamd va na’t bilan boshlangan. Asarning hamd qismi:

“Marhamatli mehribon Tangrining nomi bilan”

Qodir bir Xudo barchadan ustundir,

Talay hamd-u sanolar ungagina sazodir.

Ulug’lik sohibi, qodir, zuljalol,

Yaratuvchi, bino qiluvchi hamda qodir kamol.

Saylangan rasuliga durud (va) salom(lar),

Shuningdek, chahoryorlarga ham cheksiz salom(lar).

Muhammad payg’ambar – xaloyiq boshi,

Hamma (va) barchaga u ko’z-qoshdir.

Hamd-u sano, shukrona va maqtovlar (bo’lsin) eng aziz va eng ulug’ Tangrigaki, (U) ulug’li sohibi, tugal qudratli podshoh, yerni, ko’kni yaratgan, hamma tin oluvchilarga rizq bergandir. (U) nimaniki istasa qilgandir, shuningdek, nimani istasa qilgusidir, “Yaf’alu mo yashayu va yahkamu mo yurid” [ya’ni nimaga qasd qilsa, qilgay va nimaga ixtiyor qilsa, hukm yuritgay]. Shuningdek, odamlar orasida sarasi (bo’lmish) Tangrining Rasuliga sonsiz salomlar bo’lsin, (Rasulning) safdoshlari (bo’lmish) aziz va qimmatli sahobalar uzra, Rizvonollohu alayhum ajmaina [ya’ni ularning barchasi uzra Tangrining roziligi yog’ilgay].

Yuqorida keltirilgandek, asarning hamd va na’t qismi sharq adabiyoti asarlaridagi kabi an’anaviy hamd va na’t bilan, ya’ni nazmda yozilgan. Asarning avvalida Allohga hamd, keyin esa Uning payg’ambariga va choryorlariga ta’rif (na’t) bilan boshlangan.

“Shayboniyнома” asari

Shayboniyнома — o’zbek xoni Muhammad Shayboniy tarixi to’g’risida tarixiy-jangnoma doston. O’zbek tarixchisi va shoiri, Muxammad Solihning asari. Turkiy tilda (chig’atoy yoki eski o’zbek tilida) yozilgan.

Asar 1506-yilda yozib tugallangan. Doston Muhammad Shayboniyning temuriylarga qarshi olib borgan harbiy yurishlari tasviriga bag’ishlangan. Shayboniyнома 8902 misradan iborat bo’lib, 76 bobdan tashkil topgan. 16 bob dostonning muqaddimasi, shundan 1-3-boblar hamd va na’tlardir. 4-bob so’z ta’rifiga, 5-14-boblar Shayboniyxonning tavsif va ta’rifiga bag’ishlangan, 15-bob esa „Kitob nazmining sababi“ bayonidadir. 16-bob Mullo Abdurahim haqida. Asarning syujeti — asosiy qismi 17-bobdan boshlanadi. Keyingi boblarda 1499-1500; 1505-1506-yillarda ro’y bergan tarixiy voqealar xronologik izchillikda bayon etilgan. Bu qonli kurashlarning shohidi va ishtirokchisi bo’lgan Muhammad Solih o’z ko’zi bilan ko’rgan, o’zi qatnashgan voqealarini bayon qiladi.

Dostonda Shayboniyxonning 1499-1500-yillarda Turkistondan Samarqandga qo’shin tortib kelishi, Samarqandni bosib olish uchun qilingan ilk urinishlarning barbod bo’lishi va chekinishi, Buxoro



viloyatining hokimi Boqi Tarxon va uning qo'shini Dabbusiy qo'rg'onida(hozirgi Ziyovuddin yaqinida) qamal qilib,Buxoroni bosib olishi,Qorako'l,Qarshi,G'uzor va boshqa hududlarda aholi qo'zg'olonlarining qattiqqo'llik bilan bostirilishi,Samarqandni 6 oy qamal qilinishi,Boburning Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo'lishi, Shayboniyxonning Samarqandni,keyinroq Andijon,Toshkent,Hisor,Badaxshon va boshqa viloyatlarni zabt etishi birma-bir bayon etiladi.Doston 1504-1506-yillarda Shayboniyxonning Xorazmga yurishi,uni egallab olib,g'alaba bilan Buxoroga qaytishi tasviri bilan tugaydi.

Asarning hamd qismi quyidagicha boshlanadi:

Hamd angokim, tilim yetti go'yo,
Hamd angokim, ko'zum yetti bino.
Hamd angokim, tanima jon berdi,
Hmad angokim, manga ishq yetti nasib,
Qilmadi aql diyorida g'arib...
...Ishqdin ayladi jonimni shod,
Ishqdin qildi ravonimni shod.
Ishqdin qildi tilimni go'yo,
Ishqdin qildi ko'zimni bino.
Shukrkim,ishq ila lutf ayladi jon,
Shukrkim, ishq ila berdi imon.

Asarning hamd qismida ijodkorning Alloh taolaga shukr qilish tasviri ifodalangan. Ijodkor o'zining taniga jon bergan, qalbida ishq o'tini tug'dirgan, aqlda ham g'arib qilmagan, unga ishq bilan birga imon bergan Allohga hamd aytadi.

Asarning na't qismida ijodkor Payg'ambar so'zini ishlatmaydi, balki uning o'rniga "**Xazrati risolat**" so'zini qo'llagan. Bu so'z "**Allohning elchiligini o'z zimmasiga olgan zot**" degan ma'noni anglatadi.

«Rasul»ning vahiy qomusidagi ma'nosi vahiyini qabul qilib olib, Alloh taolo tarafidan odamlarga bevosita xabar berishdan tashqari Allohning risolatini [elchiligini] o'z zimmasiga olgan va ushbu ilohiy elchilik vazifasini odamlarga yetkazishga ma'mur bo'lgan payg'ambarlar demakdir. Ijodkor Payg'ambarni "**Risolat chamanining samani**" deb ham ta'riflagan.

"**Shayboniyнома**" na't qismi nazmda quyidagicha keltirilgan;

Ey risolat chamanining samani,
Ey nubuvvat sumanining chamani!
Inna amlah chamanining gulisen,
Inna afsah gulining bulbulisen!
Anbiyo barcha sango madhguzor,
Avliyo barcha sango xizmatkor.
Xatm bo'ldi sango payg'ambarlik,
Yarasha tushti sango sarvarlik.

Yuqoridagi baytlar tahliliga o'tishdan oldin ba'zi bir notanish so'zlarning ma'nosini keltirib o'tamiz:

- **Risolat** – elchilik,vakillik
- **Saman** – sariq tusli tulpor
- **Nubuvvat** – aqlli,dono,payg'ambarona fikrlovchi



- **Suman** – xushbo'y hidli o'simlik
- **Amlah** – yumshoq tilli
- **Afsah** – chechan, so'zamol, yoqimli so'zli
- **Anbiyo** – nabiyalar, payg'ambarlar
- **Sarvar** – yo'lboshchi, rahbar, rahnamo
- **Avliyo** – dindor kishilar

Endi baytlar tahliliga o'tadigan bo'lsak, ijodkor payg'ambarimizni "elchilik chamanida eng ulug'i, boshqalaridan ajralib turadigan, donolik chamaning eng xushbo'y guli, yumshoq tillilar chamanining guli, yoqimli so'zlaydigan insonlar ichida bulbul, - deya e'tirof etgan, yana shunday deganki, barcha nabiyalar senga madh yozuvchilardir, barcha dindor kishilar senga xizmatkordir, payg'ambarlik senga berildi, senga musulmamlarga rahnamo bo'lish tayinlandi, - deya ta'rif keltirgan".

"Hibat ul-haqoyiq" asari

Axloq muallimi nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk so'z san'atkori Adib Ahmad Yugnakiyning Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilib, islom dini axloqini targ'ib qilish va komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfas") asari turkiy pandnoma adabiyotining noyob durdonasi bo'lib, undagi hikmatlarning mavzusi keng va rang-barang, ularda olam va odam munosabatlari, hayotning mazmuni, inson umrining mohiyati, bilimning afzalligi, odob-axloqning kishi kamoloti uchun ahamiyati, insoniy fazilat va qusurlar xususida chuqur bilim va katta hayotiy tajriba asosida, kundalik turmushdan olingan misollar vositasida teran mulohazalar yuritilib, ibratli xulosalar chiqariladi.

"Hibat ul-haqoyiq" asari XV—XVI asrlarda ham el orasida mashhur bo'lgan. Adib Ahmad "Hibat ul-haqoyiq"ni tugatib, uni hukmdori — "aql-u hush makoni-yu bilim va fazilat koni" bo'lmish Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi.

"Hibat ul-hayoyiq" asari shu asrlarda yaratilgan barcha asarlar kabi an'anaviy hamd va na't bilan boshlangan.

Bismillohir rahmonir rahim (Oллоhning hamdi haqida)

Iloho, behad hamd aytunna senga,
Lutfing cheksiz — umid qilaman unga.
Loyiqmi hamdingni aytishga bu til,
Yolvorib so'rayman — ko'mak ber menga.
Jonsiz tabiat-u jonli mavjudot
Guvohlik beradi: sen borsan — shunga.
Oqil shak keltirmas — har bir ashyoda
Borligingga bordir dalil ming-ming-a!

Yuqoridagi baytlarda ijodkor Allohga hamd aytib, Allohdan o'ziga ko'mak so'raydi va yana Alloh borligiga minglab dalil keltirishi mumkinligini aytadi. Allohning karami kengligiga ishonadi va bu hislarini o'zini go'zal baytlarida mahorat bilan ifodalab beradi.

Payg'ambar alayhissalom na'ti haqida

Aql-u hushing yig'ib eshitgil, endi
Payg'ambar fazlidan so'z ochay senga.
Insonlar ichida eng afzali u,
Teng kelolmas hech bir payg'ambar unga.



Nabiylar yuzidan yog'iladi nur,
Bu jihatdan ular o'xshaydi kunga.
Uning madhi bilan shirindir tilim,
Uning yodi huzur bag'ishlar tanga.
Hamd aytayin, zora qiyomat kuni
Shafolat qo'lini uzatsa menga.

Baytlarda ijodkor Payg'ambarimizni **"insonlarning eng afzali"** deya ta'riflaydi. Unga boshqa hech bir payg'ambari teng kelolmaydi deya e'tirof etadi. Nabiylarni xuddi kun kabi yuzidan nur yog'ilib turadi, Uni ta'riflaganda tilim shirin bo'ladi, Uni eslash esa menga huzur bag'ishlaydi, Unga hamd aytadi, zero ijodkor qiyomat kuni Payg'ambarimiz unga shafolat qo'lini uzatishidan umid qiladi.

"Hibat ul-haqoyiq" asarida ijodkor faqat Payg'ambarimizga na't emas, balki **"To'rt xalifa madhi"** ni ham keltirgan.

To'rt xalifa madhi

Yana to'rt do'stingga ayturman salom,
Jonim fido bo'lsin bu to'rt eranga
Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali —
Tengsiz bahodirdir kirganda jangga.
Bu haq yo'lidagi to'rt xalifaga
Kim e'tiqod qilmas — la'nat o'shanga!
Kechirib kelgansan gunohim doim,
Afv et, yana — rahm qil o'jiz bandangga.
Barcha g'am-azobdan qutular edim,
Agar fazl-u aqling yor bo'lsa menga.

Bu yerda Ahmad Yugnakiy Payg'ambarimizdan keyingi to'rt xalifaga ham madh keltirgan. Islom dinining Hanafiya mazhabida payg'ambarimizdan keyin to'rt xalifa turadilar va ularga e'tiqod qilish shu mazhab musulmonlarining farz amallaridan biri sanaladi.

"Hibat ul-haqoyiq" asarining hamd va na't qismi yuqorida ko'rsatilgandek nazmda yozilgan va yuqorida aytilgandek ta'riflangan.

"Devoni hikmat" asari

„Devoni hikmat“ — Ahmad Yassaviyning she'rlarini o'z ichiga olgan majmua. „Devoni hikmat“ islom dini asoslaridan bahs etuvchi, shariatning ahkomi va ahli sunnatning aqidalaridan saboq beruvchi, tasavvuf sirlari va tariqatning o'dob-u arkoni yoritilgan qomusiy xarakterdagi asardir. Unda ilohiy ishq g'oyasi va didaktik mazmun yo'nalishi yetakchilik qiladi. „Devoni hikmat“da munojot, qasida, munozara janri talablariga muvofiq keladigan she'rlar bilan bir qatorda, „Me'rojnomasi“ (Hazrat Muhammad alayhissalom madh etilgan manzuma) ham o'rin olgan. Asar boshidan so'ngiga qadar orifona ruhda yozilgan. „Devoni hikmat“ asari Allohga hamd bilan boshlangan va shu mazmun asar so'ngiga qadar davom etadi.

Asarning avvalida, ijodkor o'zining asar yozish muddaosi haqida biroz so'zlab, ke'yin Payg'ambarimizga na't bilan boshlangan va bu qism quyidagicha:

Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib,
Toliblarga durri gavhar sochdim ma'no.
Riyozatni qattiq tortib qonlar yutib,



Man daftari soniy so'zni ochdim ma'no...
G'arib, faqir yetimlarni Rasul so'rdi,
O'shal tuni me'roj chiqib diydor ko'rdi.
Qaytib tushib g'arib,yetim izlab yurdi,
G'ariblarni izin izlab tushdi ma'no.
Madinaga Rasul borib bo'ldi g'arib,
G'ariblikda mehnat tortib bo'ldi habib,
Jafo tortib Yaratganga bo'ldi qarib,
G'arib bo'lib, uqbolardan oshdim ma'no.

“Devoni hikmat” asarining muqaddimasida ijodkor asarning qanday boshlaganligini bayon qiladi, undan keyin esa Payg'ambarimiga na't bilan davom etadi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, asarda Allohga hamd nima uchun keltirilmagan? Asarda Allohga hamd asarning boshidan toki so'ngiga qadar davom etgan, ya'ni ijodkor har bir misrada Allohga hamd aytgan. Yana shuni bilishimiz kerakki, asar orifona ruhda yozilgan. Undan bir bayt keltiramiz:

Zikrin tamom qilib o'tdim devonaga,
Haqdin o'zga hech so'zlamay begonaga.
Shamin izlab shogird kirdim parvonaga,
Axgar bo'lib ,kuyib , yonib, o'chdim mano.

Yuqoridagi bayt tahliliga o'tadigan bo'lsak, bu bayt asardagi hamdlardan bir qismi, ijodkor Alloh zikrini tamom qilib devonga aylandim deya ta'rif keltirgan, bu o'rinda qo'llangan “devona” so'zi salbiy ma'noda emas, “Alloh yo'lida darvesh bo'lgan “ degan ma'noni anglatadi. “Men shunaqa darvesh bo'lganimdan keyin Haqdan boshqa begonaga so'zlamay qo'ydim” ,- deydi ijodkor, sababi Haqdan boshqaning so'zi, va'dasi rost emas deydi. Ijodkor bayt so'ngida hayotning asl mazmuni Allohning jamoliga,uning ishqiga yetishish deb biladi, shu o'rinda , yorug'lik izlab parvonaga shogird bo'ldim deydi, chunki parvona har doim yorug'likka intiladi. Yakunlovchi misrada Ahmad Yassaviy **axgar**, ya'ni “ **lahcha cho'g'** “ bo'lib kuyib-yondim va oxirida so'ndim deya aytdi. Yassaviy bu bilan shu aytmoqchiki, Allohni ishqida men lahcha cho'g' kabi kuyib yondim va men bu yo'lda so'ndim.

“Sabot ul-ojizin” asari

Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishdan iborat. U «Maslak ul-muttaqin» («Taqvodorlar maslagi»), «Murod ul-orifin» («Oriflar murodi»), «Mahzan ul-mute'in» («Itoatkorlar xazinasini») asarlarini forsiy, «Sabot ul-ojizin» («Ojizlar saboti»), «Favz un-najot» («Najot tantanasi») masnaviylarini turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa she'rlari ham mavjud. «Mevalar munozarasi» nomli manzuma ham unga nisbat beriladi..

“**Sabot ul-ojizin**” da mavjudotlar ichra eng mukarram va mukammal qilib yaratilgan insonning mohiyati, uning hayotdagi o'rni, ilohiy tartib asosiga qurilgan borliq bilan insonning o'zaro munosabati singari umumbashariy masalalar islomiy nuqtayi nazardan atroflicha talqin qilingan. “Sabot ul-ojizin” axloqiy-ta'limiy fikrlar bayon etilgan yetuk asar hisoblansa-da, bunday g'oyani ifoda qilish usuli ko'pchilik asarlardan farq qiladi. Masalan, o'zbek adabiyotining ilk davrlarida yaratilgan asarlar, chunonchi, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” kabi dostonlarida axloqiy-ta'limiy fikrlar diniy hamda dunyoviy manzaralar (majoziy tasvirlar), kechinmalar orqali berilgan.

Mazkur asar muqaddimasi shu davrda yaratilgan asarlar kabi an'anaviy hamd va na't bilan boshlangan. Uning hamd va na't qismi qisqacha quyidagi mazmunda yozilgan:



“Bizlarni va yer-u osmonlarni yaratgan, borliq mavjudotlar ahvolidan doim xabardor bo’lgan Alloh taologa behad hamdlar va sonsiz sanolar bo’lsin! Butun olamga rahmat va yaxshi axloq muallimi bo’lgan Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamga cheksiz salavotu salomlar bo’lsin”.

Ijodkor asarning hamd qismida Alloh taolo insonni qanday yaratgani haqida, Allohning mo’jizalari, Alloh taoloning payg’ambarlariga bergan xislatlari haqida gap boradi. Na’t qismi esa Payg’ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamning ta’riflariga bag’ishlanadi, So’fi Olloyor Payg’ambarimizni **“Allohning do’ssti”** deya ta’riflaganlar, kelib chiqishlari Quraysh qabilasiga borib taqalishi haqida, u kishining qilgan amallari yoritilgan.

“Shajarai turk” asari

„**Shajarayi Turk**“, „**Shajarai turk va mo’g’ul**“ („**Turkiy xalqlar va mo’g’ullar shajarasi**“) – tarixiy asar, muallifi **Abulg’oziy Bahodirxon**. Eski o’zbek tilida yozilgan. „Shajarayi turk“ XIII-XVII-asrlardagi mo’g’ul va turk hukmdorlari haqidagi ma’lumotlarni, xususan, Markaziy Osiyo xonliklari, jumladan, Xiva xonligining muallif yashagan davrgacha bo’lgan tarixini o’z ichiga olgan. „Shajarayi turk“ Abulg’oziy Bahodirxonning o’limi tufayli nihoyasiga yetkazilmay qolgan bo’lsada, uning o’g’li Anusha Muhammadxon (1663—1687) topshirig’iga muvofiq, urganchlik tarixchi Maxmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tomonidan ba’zi ma’lumotlar bilan to’ldirilgan. „Shajarayi turk“ning yozilish sababi muallif tomonidan quyidagicha izohlangan: „Ammo bizning otaliqlarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Abdullaxon II) otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur bo’ldi (va) ul sababdin o’zimiz aytduk“. Asar mo’jaz muqaddima va 9 bobdan tashkil topgan.

„Shajarayi turk“ning 7, 8 va 9-boblari (1644-yilgacha kechgan voqealar) Abulg’ozixon tomonidan yozilgan. 1, 6-boblar va 9-bobning davomi (1644—1664) Mahmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tarafidan bitilgan.

Mazkur asarning muqaddimasi dastlab hamd va na’t bilan boshlanmaydi, balki asarning muqaddimasi **“Abulg’oziy Bahodirxon va uning “Shajarai turk” asari haqida ikki og’iz so’z”** bobi bilan boshlanadi. Undan keyingi bob esa Alloh taolo Odam alayhissalomni qay tarzda yaratgani va Odam alayhissalomdan keyingi avlodlarning shajarasi haqida ma’lumot berilgan. Asar mazuni va tuzilishi asarning nomiga mos tarzda “shajara” shaklida bayon qilingan. Mazkur bob yakunlanganidan keyin Mo’g’illar shajarasi keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan asarlarning barchasi deyarli bir davrda yaratilgan, o’z davrning nodir namunalari hisoblangan. Endi bu asarlarning hamd va na’t qismidagi o’xshashliklar va farqli tomonlarini solishtirib ko’ramiz.

Avvalo, **Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”** asarning hamd va na’t qismini boshqa asarlarining hamd va na’t qismi bilan taqqoslaydigan bo’lsak, bu asar qolgan asarlarga qaraganda farqi shuki, asarning hamd va na’t qismi alohida emas, balki birga berilgan. Asar eski turkiy tilda yozilgan, bunga isbot sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, “Alloh” so’zi “Tangri, Xudo “ nomlari bilan keltirilgan:

“Marhamatli mehribon Tangrining nomi bilan”

Qodir bir Xudo barchadan ustundir,

Talay hamd-u sanolar ungagina sazodir.

Allohga hamd keltirilgandan keyin Pag’ambarimizga va chahoryorlar na’tiga bag’ishlangan.

Saylangan rasuliga durud (va) salom(lar),

Shuningdek, chahoryorlarga ham cheksiz salom(lar).

Muhammad payg’ambar – xaloyiq boshi,

Hamma (va) barchaga ko’z-u qoshdir.



Na't qismda Payg'ambarimizning sifatlari, sunnatlari haqida ta'rif an'anaviy tarzda beriladi.

Keyingi asarimiz **Muhammad Solihning "Shayboniynoma"** dostonida na't qismining boshqa asarlardan farqi shuki, asarning hamd qismida Alloh so'zi ham, uning o'rnida ishlatiladigan so'z ham qo'llanmagan, baytlar quyidagicha:

Hamd angokim, tilim yetti go'yo,

Hamd angokim, ko'zum yetti bino.

Yuqoridagi baytdan ko'rinib turibdiki, baytda Alloh so'zi qo'llanmagan, balki Unga to'g'ridan to'g'ri murojaat ifodalangan. Hamd qismi Allohga shukrona keltirish bilan tasvirlangan. Asarning na't qismida ham xuddi hamd qismi kabi "Payg'ambar" so'zi ishlatilmagan, balki uning o'rniga "**Hazrati risolat**" so'zini qo'llagan. Bu so'z "**Allohning elchiligini o'z zimmasiga olgan zot**" degan ma'noni anglatadi.

Ey risolat chamanining samani,

Ey nubuvvat sumanining chamani!

Inna amlah chamanining gulisen,

Inna afsah gulining bulbulisen.

Shayboniynomaning hamd va na't qismi boshqa asarlarnikiga qaraganda farqli tomoni shundaki, unda an'anaviy so'zlar (Alloh, Tangri, Xudo, Payg'ambar)dan foydalanilmagan:

Hamd angokim,tilim yetti go'yo,

Hamd angokim,ko'zum yetti bino.

Hamd angokim,tanima jon berdi,

Hamd angokim,manga imon berdi.

Hamd angokim,manga ishq etti nasib,

Qilmadi aql diyorida g'arib.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-hayoyiq" asari shu asrlarda yaratilgan barcha asarlar kabi an'anaviy hamd va na't bilan boshlangan va nazmda yozilgan. Asar muqaddimasida Allohga hamd, Payg'ambarimizga na't va to'rt xalifa madhi ham keltirilgan. To'rt xalifa madhining keltirilishi shu davrda yaratilgan asarlar hamd va na't qismida uchramaydigan farqli jihat hisoblanadi.

Bismillohir rahmonir rahim (Ollohning hamdi haqida)

Iloho, behad hamd aytunna senga,

Lutfing cheksiz — umid qilaman unga.

Loyiqmi hamdingni aytishga bu til,

Yolvorib so'rayman — ko'mak ber menga.

Payg'ambar alayhissalom na'ti haqida

Aql-u hushing yig'ib eshitgil, endi

Payg'ambar fazlidan so'z ochay senga.

Insonlar ichida eng afzali u,

Teng kelolmas hech bir payg'ambar unga.

To'rt xalifa madhi

Yana to'rt do'stingga ayturman salom,

Jonim fido bo'lsin bu to'rt eranga



Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali —

Tengsiz bahodirdir kirganda jangga.

Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat” asarining hamd va na’t qismiga to’xtaladigan bo’lsak, „Devoni hikmat“da munojot, qasida, munozara janri talablariga muvofiq keladigan she’rlar bilan bir qatorda, „Me’rojnom“ (Hazrat Muhammad alayhissalom madh etilgan manzuma) ham o’rin olgan. Shu o’rinda bir narsani ta’kidlab o’tish kerakki, bundan avval yaratilgan asarlarda „Me’rojnom“ (Paygambarimiz madh etilgan manzuma) keltirilmagan.. Asar boshidan so’ngiga qadar orifona ruhda yozilgan. „Devoni hikmat“ asari Allohga hamd bilan boshlangan va shu mazmun asar so’ngiga qadar davom etadi.

Asarning avvali, ijodkor o’zining asar yozish muddaosi haqida biroz so’zlab, ke’yin Payg’ambarimizga na’t bilan boshlangan va bu qism quyidagicha:

Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib,

Toliblarga durri gavhar sochdim ma’no.

Riyozatni qattiq tortib qonlar yutib,

Man daftari soniy so’zni ochdim ma’no...

G’arib, faqir yetimlarni Rasul so’rdi,

O’shal tuni me’roj chiqib diydor ko’rdi.

Ahmad Yassaviyning bu asari boshqa asarlarga qaraganda hamd va na’t qismi farq qiladi, farqi shundaki, „Devoni hikmat“ asari bilan bir davrda yaratilgan asarlarning muqaddima qismi Allohga hamd bilan boshlanadi, lekin „Devoni hikmat“ asari avvalida ijodkor asarning qanday boshlaganligini bayon qiladi, undan keyin esa Payg’ambarimizga na’t bilan davom etadi. Shu o’rinda bir savol tug’iladi, asarda Allohga hamd nima uchun keltirilmagan? Asarda Allohga hamd asarning avvalidan toki so’ngiga qadar davom etgan, ya’ni ijodkor har bir misrada Allohga hamd aytgan.

Navbatdagi asarimiz tasavvuf ijodkori **So’fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin”** asaridir. Bu asar tasavvufiy ruhda yozilgan, bilim va ma’rifat asosida qurilgan asar desak ham hech mubolag’a bo’lmaydi. Asarning hamd va na’t qismi an’anaviy nazmda yozilgan. Hamd qismi quyidagicha:

Bismillohir Rahmonir Rahim

Sano lilholiqi g’abrovu aflok,

Yaratti qatraiydin gavhari pok.

Samovot o’yini tutti muallaq,

Jahona hukmini ko’rsatdi mutlaq.

Hamd qismida Allohning sifatlari, ulug’ligi, Alloh taoloning odamzodni yaratishi haqida gap boradi. Na’t qismida esa Payg’ambarimizning sunnatlari, islom dinini qay tarzda yoyganlari haqida, qay tarzda insonlar orasida dinni targ’ib qilganlari va bu yo’lda qilgan zahmat va mashaqqatlari tasvirlagan. Na’t qismidan quyidagi parchani keltiramiz:

Dar bayoni na’ti Rasululloh

Durudi beadam hodiyyi ding’a,

Rasuli rahmatan lil-olaming’a.

Xudoning do’sti, muxtor ul-qurayshi,

Mudom ummat uchun talx erdi ayshi.

Bu qismda So’fi Olloyor Payg’ambarimizni **“Allohning do’sti”** deya ta’riflaydi.



So'nggi asar **Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai turk"** asaridir. Bu asar boshqa asarlar hamd va na't qismiga qaraganda biroz farqli jihatlari mavjud. Mazkur asarning muqaddimasi dastlab hamd va na't bilan boshlanmaydi, balki asarning muqaddimasi **"Abulg'oziy Bahodirxon va uning "Shajarai turk" asari haqida ikki og'iz so'z"** bobi bilan boshlanadi. Undan keyingi bob esa Alloh taolo Odam alayhissalomni qay tarzda yaratgani va Odam alayhissalomdan keyingi avlodlarning shajarasi haqida ma'lumot berilgan. Boshqa asarlarning hamd va na't qismidan farqining birinchisi, asar to'liq nasrda yozilgan. Keyingi farq esa, hamd va na't Alloh taoloning Odam alayhissalomni yaratgani va undan keying avlodlari haqida gap boradi, Odam alayhissalomning shajarasi, Payg'ambarlar shajarasi haqida ta'rif keltirilgan. Asar nomi "shajara" bilan bog'liq bo'lganligi sababli hamd va na't qismi yuqorida ta'riflaganimiz kabi keltirilgan.

Xulosa shuki, X-XII asrlarda yaratilgan asarlarning barchasida keltirilgan hamd va na't qismlari ijodkorlarning diniy bilim darajasini, din va adabiyot o'rtasidagi bog'liqliklarni bizga yaqqol ko'rsatib beradi. Islom dining muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'oni Karim" da ham har bir sura Allohga hamd bilan boshlanadi."Ummu Qur'on" nomi bilan aytiladigan "Fotiha" surasining ba'zi oyatlarini bunga isbot sifatida keltirishimiz mumkin:

**"Bismillohir Rahmonir Rahim" - Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman).
"Alhamdu lillahi robbil 'alamiyn" - Hamdlar olamlar Rabbi Allogakim.**

Qur'oni Karimdagi "Kalimayi shahodat" ni esa Allohga hamd, Payg'ambarimizga na't sifatida keltirsak bo'ladi:

"Ashhadu alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan 'abduhu va rosuluh" – Allohdan o'zga iloh yo'qligiga va Muhammad Allohning bandasi va Rasuli ekaniga guvohlik beraman.

Bundan ko'rinib turibdiki, yuqorida sanab o'tgan asarlarimizning barchasi Qur'oni Karimga asoslanib yozilgan. Islom olamida yaratilgan asarlarning deyarli ko'pchiligi Qur'oni Karimga asoslanib yozilganligi uchun ham bu nodir adabiyotlar hozirgi kunda o'z ahamiyatini, qadr-qimmatini yo'qotmagan.

Asarlardagi hamd va na't ko'rinishlari hajm, mazmun, tuzilish jihatidan farq qilsa-da, ularning mazmuni bir xil, ya'ni Allohni ulug'lash, unga hamd aytish, Payg'ambarimizning sunnatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish va ularga amal qilish haqidadir. Yuqoridagi barcha asarlar bizga faqat adabiyot doirasida emas, balki din, tarix, axloq, falsafa haqida ham qimmatli ma'lumotlarni beruvchi o'zbek adabiyotining nodir namunalari va o'zbek adabiyotining tayanchi, poydevori hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig", O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti Toshkent-1971
2. Muhammad Solih "Shayboniynoma", G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent-1989
3. Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq", "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2013
4. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar", G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent-1991
5. So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin", "Mehnat" nashriyoti Toshkent-1991
6. Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarai turk", "Cho'lpon" nashriyoti Toshkent-1992
7. Uz.wikipedia.org
8. Cyberleninka.ru

